

**BAXT TUSHUNCHASINI PSIXOLOGIK TAVSIFI,
MAZMUN VA MOHIYATI****Usmanova Maxliyo Adiljanova***Andijon viloyati Qo'rg'on tepa
tumani 9-maktab psixologi*

Annotatsiya: *Inson hamisha go'zallikka, baxtga intiladi, baxtiyor damlarni kutib yashaydi. O'ziga to'kis baxtni sog'inmagan odam zoti topilmasa kerak. Baxt esa, misoli bir qush: qattiqroq ushlasang ham, bir oz bo'sh qo'ysang ham undan ayrilib qolishing mumkin. Shu tufayli uni har kim o'zicha tushunadi, o'zicha tasavvur etadi, o'zicha angelaydi. Dunyodagi buyuk kashfiyotlar, o'lmas san'at asarlarining yaratilishiga ham aslida insoniyatning baxt haqidagi orzu-armonlari sababchi bo'lgan bo'lsa, ehtimol.*

Kalit so'zlar: *buyuk baxt, sho'rolar davri, kommunizm, axloq kodeksi, orzu-istaklar, mo'min-musulmon baxti.*

"Inson yolg'iz o'zi hech qachon baxtiyor bo'lolmaydi, barcha insonlar baxtli bo'lgandagina u baxtli bo'ladi!"

Lev Tolstoy

Inson hayotda yashar ekan doimo o'zidan yaxshi nom qoldirishni o'ylaydi. Baxtni har kim o'zicha, har xil tasavvur qiladi, biroq bu tushuncha qamrovi bizning tafakkur doiramizdan ancha keng va uni birgina hol bilan ifodalab bo'lmaydi. Aytaylik, insonning dunyoga kelishi – baxt! Kimgadir sevganiga uylanish – baxt! Farzandli bo'lish – baxt! Kimgadir mehr qo'ygan kasbi bilan shug'ullanish – baxt! Ota-ona duosini olish – farzand uchun baxt! Mashinali bo'lish, dang'illama uy qurish, to'y qilish, biror boshqa orzusiga erishish... Bular ham kimlar uchundir baxt. Odamlar baxt, deb biladigan bu hollarni istalgancha davom ettirish mumkin. Ularni xar qancha misol keltirsak xam adog'I yo'q. Xar kim baxtni o'zicha idrok qiladi. Unga erishish uchun qo'ldan kelgancha xarakat qiladi. O'zidagi bor imkoniyatlarini ishga soladi. Hayotda qandaydir bir yutuqqa erishish xam bu baxtdir. Kimdir hayotda o'zini yolg'iz yashashni xoxlaydi. U uchun xotirjamlik baxt, kimdir esa atrofida yoru do'stlari bo'lishini xoxlaydi. U uchun do'stlar diydori baxt. Shunday ekan baxtli yashash uchun xar bir inson o'z mexnati bilan kurashmog'i lozim. Ammo ular orasida shunday baxt borki, unga musharraf bo'lish komillikning yuksak namunasidir. Bu – Vatanga, elga sodiq bo'lish, jamiyat ravnaqi, yurtdoshlar tinchligi, osoyishtaligi yo'lida fidoyilik ko'rsatish. Odamlarni sevis, ularga beg'araz, mehr ko'zi bilan qarash, hamma o'ziga o'xshagan inson ekanligi,

Yaratgan oldida doimo o'zini o'zgalar bilan teng ko'rishi, hayot bergan ne'matlarga shukronalik keltirishi lozim. tengligini e'tirof etish. Bulardan ham buyuk baxt – O'zbekiston degan ozod yurt farzandi ekanligimiz. Nadomatlar bo'lsinki, ko'p hollarda hamma ham bunday fidoyilik, bag'rikenglik ko'rsata olmaydi. Ko'pincha ajdod-avlod, ota-ona, bola-chaqaga ko'rsatgan mehribonlikni begonalarga ravo ko'rmaydi. Faqat o'zim bo'lsam, deydi. O'ziga tinch va to'q insonlarni ko'rsa, havas emas, hasad qiladi.

Sho'rolar zamonida "Hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun", "Barchamiz tenglar ichra tengmiz", "Kommunizm quruvchisining axloq kodeksi" kabi balandparvoz shioru da'vatlar har kuni ongu shuurimizga singdirilardi. Ammo amalda gap boshqa, hayot boshqa bo'lib chiqdi. Yolg'on va aldamchilikka qurilgan qizil imperiyaning chuvi chiqdi. Ijtimoiy adolatsizlik, mehnatga haq to'lashdagi nohaqlik – ishlaganning ham, ishlamaganing ham bir xil haq olishi, ma'muriy-buyruqbozlik oxir-oqibat odamlarda kelajakka ishonchni yo'qotdi, ularda tashabbuskorlikni so'ndirdi, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqardi. Tinimsiz takrorlanaverishi oqibatida "baxt" degan tushunchaning qadr-qimmati tushib ketdi.

Ba'zilar qiyinchiliksiz hayotni baxt deb tushunadi. Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. o'z hadisi shariflaridan birida bu dunyo musulmon uchun do'zax, kofir uchun jannatdir deb ta'kidlaganlar. Musulmon hayotda kelgan barcha azob-uqubatlarga sabr qiladi, aksincha, bu qiyinchiliklarni ne'mat o'laroq qabul qiladi. Alloh bizni bu dunyoga sinov uchun yubordi, hozir imtihondamiz, deb o'ziga tasalli beradi. Hammasiga chidaydi, uni xo'rlashsa ham, zulm iskanchasida bo'g'ib, qonini ichishsa ham sabr qiladi, shukr qiladi, hech qachon baxtsizman demaydi. Chunki u — musulmon. Musulmonning baxtli hayoti hali oldindaligiga chin dildan ishonadi. Hayotga doimo faqat yaxshi ko'z bilan qaraydi. Atrofdagilarga xam faqat yaxshilik tarqatadi. Bundan o'zi xam doim yaxshi kayfiyatda yuradi. Bundan musulmon bu dunyoda baxtsiz yashash kerak ekan degan fikr kelib chiqmaydi. "Baxtliman" deb aytish insonning o'ziga bog'liq. Allohning sinovlariga sabr qilish ham baxt, boshiga og'ir musibat tushganda ham o'zini yo'qotib qo'ymaslik - baxt! Zero, payg'ambarimiz s.a.v. va ularning do'stlari shunday edilar. Ularning bizlardek, katta xonadonlari yo'q edi, sufalarda tong otkizishardi, ro'zg'orlarida bir kungagina yetarlik ovqatlari ba'zan bor edi, ba'zan yo'q. Ular mol yig'mas edilar, qo'llariga ortqicha mulk tushib qolsa, tezda uni muhtojlarga tarqatardilar. Mushriklar ularni har ko'yga solsalar, qiynasalar, xo'rlasalar, zo'rlasalar ham sabr qilardilar. Mana shunday insonlar ham "Biz baxtsizmiz!" deyishmagandi, aksincha shukr qilishgandi. Biz-chi, yeyishga nonimiz, turishga joyimiz bo'lsa-da, oz'imizni baxtli emasman deb his qilamiz, bundan ham katta martabalarga erishishga, kattaroq uy-joy qurishga, katta-katta yeyishga, sarflashga harakat qilamiz. Dunyoning eng boy kishilariga "Siz baxtlimisiz?" degan savolni berishganda, ular ham ba'zi bahonalarni ko'rsatib, hali dunyoda armonim bor,

degan javobni berishadi". Mo'min bu dunyoda ham, u dunyoda ham saodatli bo'lishini Allohdan tilaydi. Mo'min uchun iymon ne'mati — baxt! Musulmon bo'lib tug'ilgani baxt! Allohni tanigani, unga shukr qilishi, bergan mislsiz ne'matlariga shukrona sifatida ibodatni ado etishi — baxt! Mo'min mo'minga - aka-uka, qarindosh. U birodarini ko'rganda chehrasi ochiladi, sevinadi, o'zida baxtlilikni sezadi. Mo'min uchun mol-dunyo, bola-chaqa baxt manbai emas! Alloh bergandi, yana qaytarib oldi, hohlasa yana beradi, deb e'tiqod qiladi, musulmon. Mo'min uchun yaxshi zavja - baxt, ulardan tarqaladigan mo'min-mo'mina farzandlar kamoli, iymoni - baxt! U bir kun tuproqqa aylanib, yo'q bo'lib ketgunimcha bu dunyoda yashab olay, o'ynab olay demaydi, balki oxiratga zahira o'laroq kofirlar "qiyinchilik, baxtsizlik" sanagan amallarni bajaraveradi. Mana shu "baxtsizlik" uning uchun katta baxt!

Haqiqiy baxt va baxtsizlik abadiyat dunyosida ma'lum bo'ladi:

105. (Qiyomat) kelgan kuni hech bir jon (egasi) Uning ruxsatisiz gapirmas. Ular ichida baxtsiz ham, baxtli (insonlar) ham bo'lur.

106. Bas, o'shanda baxtsiz bo'lganlar do'zaxda bo'lurlar va ular u yerda ingrab-hangrab tururlar.

107. Modomiki (oxiratdagi) osmonlar va yer bor ekan, (ular) u yerda mangudirlar, illo Rabbingiz xohlagani bundan mustasnodir. Albatta, Rabbingiz istagan narsasini amalga oshiruvchidir!

108. Ammo baxtli bo'lganlar esa, bas, jannatda, to (oxiratdagi) osmonlar va yer turguncha u yerda mangu tururlar, illo Rabbingiz xohlagani bundan mustasnodir. (Bu) bitmas ne'matdir. ("Hud" surasi, 105-108-oyatlar)

Baxtli insonlarning har kungi duosi shudir:

Biz ularni ardoqlasak, e'zozlasak, bunga o'zimizni burchli, mas'ul deb bilsak — baxt! Tanish-bilish, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug', og'a-ini, do'stu birodar muammosiga, mushkulini oson qilishga jindak ko'maklashsak, ularni ozod, tinch-totuv, osoyishta, farovon yashashiga hissamizni qo'sha olsak — baxt!

Hozir bir narsaga iishonchim komil, siz o'tgan besh daqiqa davomida hech narsadan xavotirlanmadingiz, qo'rquvdan yuragingizni hovuchlamadingiz, o'zingizni xotirjam his etdingiz. Sababi, yurtimizda Yaratganning ulug' ne'matlaridan biri bo'lmish tinchlik hukmron. Qirqqa yaqin mamlakatning 46 million nafardan ortiq fuqarosi urush olovidan qochib o'z vatanidan uzoqda, o'zga yurtlarda boshpana izlab yurgan paytda siz biz o'z vatanimizda, oilamiz davrasidamiz. Tinchlik bo'lsagina ish tatiydi, orzu-havaslar ila yashaysiz, to'y-tomoshalar qilasiz. Shunday ekan, vatanimiz doimo tinch bo'lishini, osmonimiz musaffo bo'lishini, dasturxonimiz to'kin bo'lishini tilaylik. Sabr va shukr bilan yashasak, barchamiz orzu-istaklarimizga yetamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qur'oni Karim suralari.
2. 2002 Hadis

3. "Til va dunyo" gazetasidan
4. Abdurauf Fitrat "O'qi" kitobi, Boku, 1917-yil
5. <https://zarnews.uz/uz/post/baxt-o-zi-nima>
6. <https://rgn.uz/2019/04/01/esselar-tanlovi-uchun-baxtiyor-haydarovning-baxt-ozinima-nomli-essesidan-parcha/>

